MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Niyozova Gulnoza Baxtiyor qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: niyozova.info@gmail.com

Annotatsiya: maktabgacha ta’limda tizimida raqamli texnologiyalar foydalanishning dolzarbligi, o‘rni va ahamiyati, pedagogik va psixologik jixatlari xaqida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, raqamli texnologiyalar vositasi yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga zamin yaratadi va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xiamat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, raqamli ta’lim, intellektual qobiliyat, rivojlanish, maktabgacha yoshdagi bolalar.

Annotation: the relevance, role and importance of digital technologies in the system of preschool education, pedagogical and psychological aspects are expressed, it creates a foundation for the development of preschool children with the help of digital technologies and promises to increase the effectiveness of education.

Key words: digital technology, digital education, intellectual ability, development, preschool children.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab barcha ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, o‘rganilgan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga ko‘proq ma’lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamlashtirish bilan bog‘liq o‘zgarishlar olib borilmoqda. Raqamli ta’lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta’limga oid muammolarni hal qilish, ta’lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini ko‘paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va rolini anglash zarurati maktabgacha ta’lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o‘z aksini topishi kerak.

Raqamli ta’lim – ta’lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o‘quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta’lim vositalar orqali o‘quv jarayonini davom ettirish, balki ta’lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O‘quv jarayoniga raqamli ta’limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarbiyachi-pedagogning innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagogga ma’lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko‘ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko‘lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o‘rin tutadi.

Zamonaviy maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi axborotlashgan jamiyatning jadal rivojlanishi, multimedia texnologiyalari, elektron axborot resurslari, tarmoq texnologiyalarining ta’lim va tarbiya vositasi sifatida keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

Bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurligini nazariy asoslash xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin. A.V.Zaporojets o‘zining “Maktabgacha yoshdagi o‘yin muammolari va uni ta’lim maqsadlarida boshqarish” kitobida kompyuterdan bolaning ijodiy rivojlanishi vositasi sifatida foydalanishga batafsil misollar keltirilgan. [1]

S.L.Novoselova fikriga ko‘ra bolalar bog‘chasining didaktik vositalari tizimiga kompyuterni kiritish bolaning intellektual, estetik, axloqiy va jismoniy rivojlanishini boyitishning kuchli omiliga aylanishi mumkinligini ta’kidlangan. [2]

Yurtimiz olimlaridan X.Yo.Najmiddinovaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishga mo‘ljallangan “Avtoolam”, “Intellektual kartochkalar”, “Songa to‘ldir”, “Basketbol”, “Quvnoq halqachalar” nomli uzviylik, fanlararo ichki va tashqi integrativlik, individual, shaxsga yo‘naltirilgan va adaptiv yondashuvlarga asoslangan multimedia texnologiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, interfaol metodlar (o‘yin, shaxsga yo‘naltirilgan, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi, muammoli-izlanishli, intellektual test, loyihalashtiruvchi, hamkorlik)ning integratsiyasini ta’minlovchi dasturiy vositalar amaliyotga joriy qilingan, N.X.Begmatovaning “Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari” bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashning pedagogik hamda psixologik jihatlari haqida fikr yuritgan. [3]

Pedagogik nuqtai nazaridan, multimedia texnologiyasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi – ularga kompyuter asosida yangicha texnologik yondashuv

hisoblanadi. Pedagogik jihatlariga esa, tarbiyalanuvchilarning monitor ekraniga qarab va unda ko‘rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish, baholash mezonini ishlab chiqish, ta’lim samaradorligini oshirish, kompyuterning “ta’lim manbai” bo‘lishi va hokazolar kiradi.

Psixologik jihatlari shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanilganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va ob’ekt obrazi bir vaqtda idrok qilinadi. Natijada o‘zlashtirishning yuqori darajada bo‘lishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, bolalarning xotirasi rivojlanadi, diqqati barqarorlashadi, ta’lim materialiga qiziqishlari ortadi. [4]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlarda raqamli texnologiya-laridan foydalanish ancha nozik masala hisoblanib, ko‘plab munozara va turli xil fikrlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishiga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularni har tomonlama yetuk inson bo‘lib rivojlanishida, mashg‘ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish, kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishi uchun mo‘ljallangan barcha kompyuterli o‘yin dasturlarining hammasi ham ta’lim jarayonida o‘z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o‘yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondoshuv va e’tibor kerak bo‘ladi. Kompyuterli o‘yin dasturlari shunday yaratilgan bo‘lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O‘yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olish, uni qanday bajarish kerakligini o‘ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha boshlang‘ich savodxonligini ham oshirish mumkin, ya’ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to‘g‘risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu bolalarni kompyuter o‘yinlaridan foydalana olish bilim va ko‘nikmalarini shakllanishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videokamera, video prorektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar vositalari asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- mashg‘ulotda pedagogik va axborot texnologiyalar yordamida barcha didaktik tamoyil va qoidalarning aniq nisbatlarini ta’minlash;
- raqamli texnologiyalar asosida tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, intellektual qobiliyatlarini, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratish;
- raqamli texnologiyalar vositalari asosida ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlari mantiqiy va idrokliligini oshirish;



1-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish shakllari

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari

Raqamli texnologiyalar – bu bola bilan ishlashda uning rivojlanishiga yordam beradigan maxsus yo‘nalish. Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki tarbiyachi bola bilan bir tilda muloqot qilish uchun zamonaviy metodlar va yangi ta’lim texnologiyalari bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Hatto e’tiborini uzoq vaqt ushlab turish juda qiyin bo‘lgan giperaktiv bolalar ham katta ekranda taqdim etilgan ma’lumotlarni, hatto turli o‘yinlar va musiqalar jo‘rligida katta qiziqish bilan qabul qilishadi. [5]

Bunday sharoitda yosh avlodni shakllantirish avvalgi an’anaviy usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashayotgan axborot makonida zarur bo‘lgan va ularga mos keladigan mutlaqo yangi usullarini o‘zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishtirishga zamin yaratadi shuningdek ta’lim faoliyati samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Запорожец, А.В. Проблемы дошкольной игры и руководства ею в воспитательных целях / Сб. науч. трудов. – М.: Просвещение, 1978. – 321 с

2. Новоселова С.Л. Проблемы информатизации дошкольного образо-вания / Новоселова С.Л. / информатика и образование. - 2010. №2. - с. 91-92.

3. Najmiddinova X.Yo. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi”/ Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun avtoreferati, Namangan - 2021, 70 b.

4. Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun avtoreferati-Toshkent: 2012, 36 b.

5. Niyozova G.B. Raqamli texnologiyalar sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish / GulDU axborotnomasi 2023/3 (103), 134-138 b.

6. Niyozova G.B. Yosh avlodni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar o‘rni va ahamiyati / UzMU xabarlari 2023 1/6/1 130-133 b.

7. Niyozova G.B. Maktabgacha yoshidagi bolalarning intellektual qobiliyatilarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati / Raqamlashtirish sharoitida uzluksiz ta’limni sifat va samaradorligini oshirish: muammo va yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Guliston 2024 yil 7-8-iyun, 275-279 b.